

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI FIZIKA-
MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

SOXIBOVA ZARNIGORXON MUTALIBJON QIZI

**Na VA Cs ATOMLARI BILAN LEGIRLANGAN GRANULALANGAN
KREMNIYNING TERMOELEKTRIK XOSSALARI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical and mathematical sciences**

Soxibova Zarnigorxon Mutalibjon qizi

Na va Cs atomlari bilan legirlangan granulalangan kremniyning
termoelektrik xossalari..... 3

Сохибова Зарнигорхон Муталибжон кизи

Термоэлектрические свойства гранулированного кремния,
легированного атомами Na и Cs..... 25

Sokhibova Zarnigorkhon Mutalibjon kizi

Thermoelectric properties of granular silicon doped with Na and Cs atoms..... 48

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 52

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI FIZIKA-
MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

SOXIBOVA ZARNIGORXON MUTALIBJON QIZI

**Na VA Cs ATOMLARI BILAN LEGIRLANGAN GRANULALANGAN
KREMNIYNING TERMOELEKTRIK XOSSALARI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona - 2023

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda mavjud an'anaviy energiya manbalarini takomillashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish, xususan termoelektrik materiallardan foydalangan holda issiqlik energiyasidan elektr energiyasi olish texnologiyalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida termoelektrik materiallarni keng ishlab chiqarish va ular asosida o'zgartirgichlar tayyorlash, yer qobig'ida an'anaviy termoelektrik materiallarning nisbatan kamligi va ularning yuqori narxi bilan cheklanganligi ushbu sohada yangi material va texnikalarni amaliyotga joriy etishni taqazo qiladi. Shu jihatdan yarimo'tkazgich asosli termoelektrik materiallarning, xususan granulalangan kremniyning elektrofizik, termoelektrik xususiyatlarini o'rganish, ular asosida issiqlik elektr qurilmalari yaratish va ularni ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yetakchi ilmiy-tekshirish institutlarining olimlari tomonidan g'ovak kremniy, mikrodonador polikristall, turli ko'rinishdagi multikremniy, mikro va granulalangan kremniyning xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy - tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, kremniyning turli modifikatsiyalarining o'ziga xosligi va fizik xususiyatlari tadqiq qilinib, ular asosida quyosh elementlari va termoelektrik yarimo'tkazgichlarning yangi turlari, shuningdek turli ko'rinishdagi datchiklarni yaratish imkoniyatlarini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ham yarimo'tkazgichli metariallarning elektrofizik xossalari o'rganish, shu jumladan yarimo'tkazgichlardagi issiqlik energiyasidan oraliq bosqichsiz elektr energiyasi olishning istiqbolli usullarini yaratishga yo'naltirilgan keng qamrovli chora – tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida "... iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash, hayotning barcha sohalariga "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini faol tatbiq etish, energiya samaradorligini oshirish..."¹ bo'yicha aniq vazifalar belgilab qo'yilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, mavjud an'anaviy energiya manbalarini takomillashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish, arzon, yuqori darajada ishonchli, ekologik toza va xavfsiz bo'lgan muqobillarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 avgustdagi PQ-3899-son "Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiyalash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2017 yil 26 maydagi PQ-3012 sonli «2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora –

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni ».

tadbirlari dasturi to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi. Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlanishining III. «Energetika, energoresurs tejamkorligi, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozligi rivojlanishi» va II. «Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mavjud an'anaviy energiya manbalarini takomillashtirish, arzon hamda ekologik jixatdan toza bo'lgan muqobillarini yaratish, xususan, kremniy asosli termoelektrik materiallardan foydalangan holda issiqlik energiyasidan elektr energiyasi olishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan yetakchi ilmiy tadqiqotchilar sifatida quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin: Rossiyada – V.V.Kaminskiy, A.A.Snarskiy, L.P.Bulat, A.K.Sarichev, I.P.Zvyagin, N.N.Stepanov, I.V.Bezsudnov, G.A.Libenson, L.S.Smirnov, V.L.Girshov, A.V.Dmitriyev, S.A.Kotov, V.N.Syemenko, A.N.Lagarkov, AQSHda - A Donald, R.F.Uollis, Y.Peter, Germaniyada - Manuel Cardona, Ye. Muller va boshqalar, respublikamizda T.S.Kamilov, A.S.Saidov, G.Abduraxmanov, S.Z.Zaynabidinov, R.Ya.Rasulov, B.M.Abduraxmanov, X.B.Ashurov.

A.A.Snarskiy, A.K.Sarichev, I.V.Bezsudnov, A.N.Lagarkovlar termoEYUK, issiqlik o'tkazuvchanlik, elektr o'tkazuvchanlik va termoelektrik asillik (Z) kabi asosiy termoelektrik kattaliklar qiymatlarini hisoblash va xossalarini taxlil qilish mumkin bo'lgan nanotuzilmali kompozitlar modelini yaratdilar va ushbu yangi materiallarning muayyan turlaridan foydalanish istiqbollari ishlab chiqdilar.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Andijon mashinasozlik institutining BF3-003. «Kirishmali voltaik effektga asoslangan yarimo'tkazgich negizli mikro va nanoo'lchamli noan'anaviy va muqobil energiya manbalarini yaratish» (Создание нетрадиционные и альтернативные источники энергии на основе примесные волтаические эффектах в микро и нанорезмерных полупроводниках) fundamental (2017-2020) loyixasi doirasida hamda Andijon davlat universitetining OTM-2-68 «Kristallarda kirishma-nuqsonli mikro va nanobirikmalarni hosil bo'lish mexanizmlari va ularning keng qamrovli funksional imkoniyatlarga ega bo'lgan ko'pqatlamli tuzilmalar olishdagi roli» (2017-2020) mavzusidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi $T \approx 300-700$ K temperatura oraliqlarida granulalangan kremniyning termoelektrik hamda elektrofizik xossalariga Na va Cs kirishmalarining ta'sirini kompleks o'rganish va zaryad ko'chirilish jarayonlarini granular o'lchami va tuzilishiga bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Na va Cs atomlarini granulalangan kremniyning sirt sohalarida kirishmali holatlar hosil qilish mexanizmlarini o'rganish;

300-700 K temperatura oralig'ida, zarralarining o'lchamlari 400 nm - 60 mkm bo'lgan, Na va Cs kirishmalari bilan legirlangan granulalangan kremniyning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish;

Na va Cs kirishmalari bilan legirlangan kremniy plastinkasini ma'lum bir dispersiya darajasiga qadar mexanik maydalash usulida tayyorlangan granulalangan kremniyning asosiy termoelektrik parametrlari elektr o'tkazuvchanligi, issiqlik o'tkazuvchanligi va Zeebek koeffitsiyentini o'rganish;

Na va Cs kirishmalari bilan legirlangan kremniy plastinkasidan tayyorlangan, granulalangan kremniydan termoelektrik materiallar olish usulini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida yuqori tozalikdagi kremniy namunalari va tarkibida Na va Cs ishqoriy metall atomlarini o'z ichiga olgan kremniy namunalari, shuningdek, kukun texnologiyasi metodidan foydalanib tayyorlangan ma'lum o'lchamdagi kremniy granulalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning predmeti tarkibiga Na va Cs atomlari kiritilgan granulalangan kremniy zarrachalarining mikrotuzilmasini o'rganish, zaryad ko'chirilish jarayonlari, namunalarning termoelektrik hamda elektrofizik tavsiflarini tahlil qilish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda dastlabki materiallarning elektrofizik tavsiflarini baholash uchun o'tkazuvchanlik turini aniqlashda termozond usulidan, solishtirma qarshilikni o'lchashda to'rt zondli usuldan, kremniy granulalari olishda kukun texnologiyasi metodidan, granulalangan kremniy zarrachalari mikrotuzilmasi va o'lchamini aniqlash uchun EMPYREAN XDR rentgen difraktometri hamda SEM EVO MA 10 (CARL ZEISS) skanerlovchi elektron mikroskopidan, issiqlik o'tkazuvchanlikni aniqlashda solishtirish usulidan, solishtirma termoEYUK ni aniqlashda differensial usuldan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

temperaturalar farqiga mos holda kristallografik buzilishlar granula hajmidan sirtga tomon ortib borib, ikki tutashgan chegara sohada reaksiyalanish qobiliyati yuqori bo'lgan SiO₂ dan iborat atomar sirt hosil qilishi, temperatura ortishi bilan ishqoriy metall atomlarining desorblanishi va buning hisobiga sirtida kirishmali holatlar hosil bo'lishi asoslangan;

o'lchamlari 400 nm - 60 mkm bo'lgan, Na va Cs atomlari bilan legirlangan kremniy granulalarini ikkita bir jinsli kontaktlar bilan mexanik siqib qizdirilganda, namunadagi qizdirish temperaturasi va uning gradiyentiga bog'liq holda elektr yurituvchi kuch va tok oqimi hosil bo'lishi aniqlangan;

tarkibiga ishqoriy metall atomlari kiritilgan namunalarda issiqlik o'tkazuvchanlikning temperaturaga bog'liqligi o'rganilib, 300 – 350 K harorat oralig'ida issiqlik o'tkazuvchanlik Na kiritilgan namuna uchun 11,81 Vt/m·K, Cs kiritilgan namuna uchun 10,69 Vt/m·K qiymatga ega bo'lib, bu monokristall kremniy issiqlik o'tkazuvchanligidan 12-14 marta kichik bo'lishligi asoslangan;

granulalangan kremniyning Zeebek kattaligi 300-500 K temperatura oralig'ida Cs kiritilgan namunalarda 470-510 mkV/K, Na kiritilgan namunalarda esa 370-430 mkV/K ekanligi, bu esa monokristall kremniyning Zeebek koeffitsientidan 8-10 marta kattaligi, shuningdek boshqa termoelektrik materiallardan farqli ravishda Zeebek koeffitsientini haroratga deyarli bog'liq emasligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mexanik usulda kremniy kukunlari olish va ularning parametrlarini o'lchash texnikasini takomillashtirish usuli ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan usullar boshqa termoelektrik materiallarni o'rganishda foydali bo'lib, kirishmali issiqlik voltaik effekt asosida ishlaydigan issiqlik energiyasi o'zgartirgichlarining o'ziga xos yangi turlarini yaratish uchun kremniy granulalarini ishlab chiqarishda qo'llanilishi mumkinligi aniqlangan;

zarrachalarining o'lchami 400 nm dan 60 mkm gacha bo'lgan ishqoriy metall atomlari kiritilgan granulalangan kremniyning issiqlik o'tkazuvchanligini aniqlashga mo'ljallangan "Visual Basic"ga tayangan yangi EHM uchun dasturiy mahsulot ishlab chiqilgan, bu termoelektrik kattalikni o'lchash aniqligini oshirish bilan o'lchash tartibini soddalashtirish va optimallashtirish imkonini beradi. Shuningdek granulalangan kremniy tayyorlovchi uskunani boshqarish imkonini beruvchi "Python" dasturi asosida yangi EHM mahsuloti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot uchun yuqori aniqlikka ega bo'lgan jahon amaliyotida keng qo'llanilishi bilan tadqiqotchilar ishonchiga sazovor bo'lgan zamonaviy standart va metrologik sertifikatlangan o'lchov asboblari va jihozlaridan foydalanish bilan hamda ishning bir qismi "Ilg'or texnologiyalar Markazi" ilmiy laboratoriyalarida olib borilganligi bilan, shuningdek bajarilgan tadqiqot ishining amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, sirt tuzilishi, granulalangan kremniy zarralari va ishqoriy metall atomlari kiritilishining ahamiyati to'g'risida yangi ma'lumotlar olindi, ular harorat o'zgarishiga bog'liq holda desorblanishi va qayta adsorblanishi, elektron-kovak juftliklarining hosil bo'lish jarayonlari hamda materialning rekombinatsiyalanish xususiyatlarini aniqlaydi, bu esa granulalangan kremniyning mikro tuzilishi va maxsus fizik xossalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni takomillashtirishda qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy va muhandislik ishlanmalarida termoelektrik energiya o'zgartirgich qurilmalarini ishlab chiqarishda qimmatbaho va kam uchraydigan an'anaviy materiallarni, shuningdek, nanokompozit termoelektrik materiallarni granulalangan kremniy bilan almashtirish imkoniyatiga e'tibor berish taklif etiladi, mavjud homashyodan, jumladan, kremniy ishlab chiqarish chiqindilaridan-homashyo, texnik kremniy, Si monokristali va epitaksial kremniy strukturalarini ishlab chiqarish chiqindilaridan tayyorlangan energiya o'zgartirgichlarning o'zini ham, ishlab chiqarilgan energiya tannarxini ham kamaytiradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Granulalangan kremniyning elektrofizik va termoelektrik xossalariga ishqoriy metall atomlarining ta'sirini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kukun texnologiyasi asosida granulalangan kremniy namunalari olish, tozalash, ularni o'lchami va mikrostrukturasini aniqlash, Cs va Na ishqoriy metall atomlari kiritilgan granulalangan kremniyning elektrofizik va termoelektrik xususiyatlarini kompleks baholash hamda termoelektrik material sifatida qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy natijalardan «FOTON» AJda ishlab chiqariladigan yarimo'tkazgichli elektron qurilmalar tayyorlashda foydalanilgan. ("Uzeltexsanoat" aksiyadorlik kompaniyasining 2022-yil 18-martdagi №04-3/455 raqamli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikni qo'llash, Na va Cs atomlari kiritilgan granulalangan kremniydan turli temperaturalarda ishlashga mo'ljallangan issiqlik energiyasi o'zgartirgichlari tayyorlashda asos sifatida foydalanish imkoniyatlarini oshirgan. Namunalarning elektrofizik parametrlari respublikamizda va butun jahonda ishlab chiqarilayotgan elektrotexnik asboblarning parametrlari darajasida ekanligi ko'rsatilgan;

ishqoriy metall atomlarini granulalangan kremniyning elektrofizik hamda termoelektrik xususiyatlariga ta'sirini temperatura o'zgarishi jarayoniga tadqiq etish uslubidan Andijon davlat universitetida 2017-2018 yillarda bajarilgan "I 2017-7-7 - "Mahalliy homashyodan abraziv karbid kremniy olish texnologiyasini o'zlashtirish va joriy etish" mavzusidagi loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 31-dekabr №89-03-5632 ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo'llash temperatura ortishi jarayonida ishqoriy metall atomlarining kremniy granulari ikki tutashgan chegara sohasi tomon desorblanishi va temperatura kamayishi bilan qayta adsorblanishi natijasida solishtirma qarshilikni 5-8 martagacha kamayishiga hamda ishqoriy metall atomlari kiritilgan namunalarda qisqa tutashuv tokini 30 martagacha oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 8 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Natijalar asosida jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan O'zR OAK sining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shulardan 5 tasi xalqaro jurnallarda e'lon qilingan, 2 ta EHM uchun dasturiy mahsulotlarga O'zR IMAning mualliflik guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, 133 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 133 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** o‘tkazilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek ularning ishonchliligi asoslangan, uning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy qilish, dissertatsiya ishining aprobatsiyasi hamda hajmi va tuzilishi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

“Mikro va nanoo‘lchamli kremniy asosli termoelektrik materiallar fizikasining hozirgi holati” nomli birinchi bobida mikro va nanoo‘lchamli yarimo‘tkazgichlar asosida termoelektrik materiallar hamda termoelementlar olish imkoniyatlari, usullari, fan – texnika taraqqiyotidagi ahamiyati yuzasidan respublikamiz hamda jahon miqyosida olib borilgan ilmiy - amaliy tadqiqotlar, shuningdek sohaga oid adabiyotlar tahlil qilingan, tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi va yechilishi zarur bo‘lgan vazifalari belgilangan.


1.1-paragrafda yarimo‘tkazgichlar hamda ularning birikmalaridan hosil qilingan mikro- va nano- o‘lchamdagi zarralarning elektrofizik hamda termoelektrik xossalarini tadqiq etish, shuningdek ushbu yo‘nalishlar oldida turgan ustuvor vazifalarning nazariy tahlili o‘tkazilgan. 1.2-paragrafda mikro va nanoo‘lchamli yarimo‘tkazgichli kukunlarning mikrotuzilmasi va zaryad holatlari, 1.3-paragrafda granulalangan kremniy yarimo‘tkazgichlarining elektrofizik va termoelektrik xossalarini o‘rganish yuzasidan tegishli mexanizmlar bayon etilgan. 1.4-paragrafda granulalangan kremniyning elektrofizik va termoelektrik xossalariga kirishmalarning ta’siri bo‘yicha nazariy tahlillar bajarilgan.

“Mikro va nanoo‘lchamli, granulalangan kremniyning elektrofizik hamda termoelektrik xususiyatlarini tadqiq etishni amaliy va nazariy metodlari” nomli ikkinchi bobida dastlabki maxsulotlarning umumiy tavsiflari, granulalangan kremniy kukunlari olish texnologiyasi, granulalangan kremniyning elektr o‘tkazuvchanligi, Zeebek koeffitsienti va issiqlik o‘tkazuvchanligini o‘rganish usullari, shuningdek, yangi ishlab chiqilgan “Visual Basic” dasturiy tizimiga asoslangan “Granulalangan kremniyning issiqlik o‘tkazuvchanligini aniqlash” nomli EHM uchun dasturiy mahsulot va undan ilmiy maqsadlarda foydalanish metodikasi bayon qilingan.

Mikro- va nanoo‘lchamli granulalangan yarimo‘tkazgichlar olishda kukunli texnologiyadan foydalanildi. Kukun texnologiyasi boshqalaridan, masalan, zol-gel, molekulyar nur yoki boshqa texnologiyalarga nisbatan soddaligi, murakkab texnologik jarayonlarni talab qilmasligi bilan ajralib turadi. Kukun texnologiyasi yordamida istalgan turdagi kristallar va ular asosida yaratilgan, ishlash muddatini o‘tagan quyosh elementlari hamda boshqa turdagi yarimo‘tkazgichlarni kukunsimon holatga keltirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Dastlabki xomashyo, yani Na va Cs ishqoriy metall atomlari kiritilgan p - tipli polikristall kremniy plastinalari planetar tegirmon yordamida maydalangan bo'lib, uning mexanoaktivator sxemasi 1 – rasmda tasvirlangan.


Granulalangan kremniyning mikrotuzilmasini o'rganish va o'lchamlarini aniqlash uchun EMPYREAN XDR rentgen difraktometri hamda SEM EVO MA 10 (CARL ZEISS) skanerlovchi elektron mikroskopdan foydalanilgan bo'lib, ularning asosiy texnik xarakteristikalari keltirilgan. EMPYREAN XDR rentgen difraktometri ham ilmiy tadqiqotlar, ham sanoatda taxliliy nazorat uchun mo'ljallangan. Shuningdek, an'anaviy kukunli va tadqiqot difraktometrning imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, nanostrukturalarda fazalar tarkibini aniqlash, hamda ularning rentgen spektral xarakteristikasini o'rganishga asoslangan.



1 – rasm. Planetar shar tegirmonining mexanoaktivator sxemasi. 1 – reaktor; 2 – tashuvchi; 3 – maydalovchi qism (sharlar); 4 – suvli sovutish tizimi; D – aylanishlar sonini boshqaruvchi elektrodvigatel

Skanerlovchi elektron mikroskop SEM EVO MA10 (CARL ZEISS) elektron mikroskop yoki maxsus elektron zond mikroanalizatoridan foydalanib, mikroskopik o'lchamdagi namunaning mikrofotografiyasini olish, shuningdek ixtiyoriy tanlangan qismining kimyoviy tarkibi to'g'risida ma'lumot olish imkonini beradi. Uskuna maxsus kompyuter bilan jihozlangan bo'lib, Windows XP uchun SmartSEM dasturi asosida ishlaydi.

Kremniy kukunlarining elektr o'tkazuvchanligini doimiy tok ta'sirida o'lchash uchun ikki kontaktli usuldan, Zeebek koeffitsiyentini aniqlashda esa 2 – rasmda tasvirlangan differensial usuldan foydalanildi. Bu usulda namunaning turli joylariga o'rnatilgan ikkita termoparalar mos ravishda isitgich va sovutgich haroratini ko'rsatadi va ular orasidagi potentsiallar farqi namuna orqali tok o'tmayotgan vaqtda o'lchanadi. Bu holatda namunadagi elektr maydon $E = \alpha \Delta T$



2-rasm. Namunalarning tarmoEYUK ni o'lchashning differensial usulini prinsipial sxemasi

ga teng bo'ladi.

Bu usulning eng muhim sharti namunaning o'zi xam, termoparali o'tkazgichlar xam bir jinsli bo'lishi kerak. Xulosa qilib aytganda termoEYUK harorat funksiyasi bo'lib, u namuna va o'tkazgichlar uzunligiga bog'liq emas. Agar ushbu shartlar bajarilsa, biz ΔU uchun quyidagini yozishimiz mumkin

$$\Delta U = - \left(\int_{T_a}^{T_0} \alpha_{Cu} dT + \int_{T_0}^{T_1} \alpha_{ref}^1 dT + \int_{T_1}^{T_2} \alpha_X dT + \int_{T_2}^{T_0} \alpha_{ref}^2 dT + \int_{T_0}^{T_a} \alpha_{Cu} dT \right) \quad (1)$$

Bir jinsli bo'lgan elektrodlar uchun $\alpha_{ref}^1 = \alpha_{ref}^2 = \alpha_{ref}$, u holda (1) ifodani quyidagicha yozish mumkin

$$\Delta U = \int_{T_1}^{T_2} (\alpha_X - \alpha_{ref}) dT. \quad (2)$$

Bundan kelib chiqadiki

$$\alpha_X(T_{av}) = -\frac{\Delta U}{\Delta T} + \alpha_{ref}(T_{av}) \quad (3)$$

bu yerda $\Delta T = T_2 - T_1$, $T_{av} = (T_2 + T_1)/2$, $\Delta U = -(\alpha_X - \alpha_{ref})\Delta T$ (4) ifoda termoEYUK ning ΔT harorat oralig'ida keskin o'zgarishlar bo'lmagan hollardagini amal qiladi. TermoEYUK ni aniqlashdagi xatoliklarning asosiy sababi ko'pincha termoparali o'tkazgichlarning bir jinsli emasligidir, ular harorat farqi ΔT ni o'lchashda xatolikka olib keladi. Bir jinsli bo'lmagan o'tkazgichlar uchun $\alpha_{ref}^1 \neq \alpha_{ref}^2$, shu sababli $\alpha_X(T_{av})$ uchun ifoda quyidagicha o'zgaradi

$$\alpha_X(T_{av}) = -\frac{\Delta U}{\Delta T} + \alpha_{ref}(T_{av}) + \frac{V_0}{\Delta T} \quad (5)$$

bu yerda,

$$U = \int_{T_0}^{T_1} \alpha_{ref}^1 dT - \int_{T_0}^{T_1} \alpha_{ref}^2 dT \approx (\alpha_{ref}^1 - \alpha_{ref}^2)(T_1 - T_0). \quad (6)$$

TermoEYUK $\Delta\alpha = U_0/\Delta T$ ni o'lchashdagi noaniqlik $1/\Delta T$ ga proporsional bo'lib, yuqori haroratlarda ΔT ni oshirish orqali kamaytirish mumkin. Biroq, past haroratlarda bu xar doim ham mumkin emas, ushbu holda ΔT uchun ikkita cheklov mavjud. 1) $\Delta T \ll T$; 2) namuna orqali o'tadigan issiqlik oqimi sovutish tizimining issiqlik sig'imi bilan chegaralanadi, bu odatda past temperaturalarda kichik qiymatlarga ega bo'ladi. Bu metod $\Delta U \propto \frac{1}{\Delta T}$ hamda ΔT kichikligiga asoslangan, u holda $\Delta U_0 \propto (T_{av} - T_0)$ ekanligidan birinchi ifoda ΔT ga bog'liq bo'lmaydi. Shuning uchun ΔU ni $T_{av} = const$ bo'lgan holat uchun ΔT ni funksiyasi sifatida o'lchash, $\Delta U = -(\alpha_X - \alpha_{ref})\Delta T + U_0$ ko'rinishdagi chiziqli funktsiyani beradi.

Kukunning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientini aniqlash uchun solishtirish metodidan foydalanildi. Ushbu metodga ko'ra ikki turdagi material namunalaridan bir xil issiqlik oqimi o'tkaziladi va xar bir issiqlik o'tkazuvchi qatlamlar orasidagi temperatura alohida o'lchanadi. Birinchi va uchinchi qatlamlar issiqlik


o'tkazuvchanlik koeffitsientini bilgan xolda o'rtadagi qatlamnikini aniqlash mumkin bo'ladi:

$$\chi_1 = \chi_2 \frac{a_1 t_3 - t_2}{a_2 t_2 - t_1}, \quad \chi_3 = \chi_2 \frac{a_3 t_3 - t_2}{a_2 t_4 - t_3} \quad (7)$$

Granulalangan kremniyning solishtirish metodidan foydalanib, har bir qatlamlar orasidagi temperaturalar farqini bilgan holda namunalarning solishtirma issiqlik sig'imini hisoblashga mo'ljallangan hamda "VisualBasic"ga tayangan yangi EHM uchun dasturiy mahsulot ishlab chiqildi.


"Granulalangan kremniy namunalarning mikrotuzilmasi va asosiy elektrofizik xossalari" nomli uchinchi bobida zarrachalari o'lchami 400 nm÷60 mkm bo'lgan granulalangan kremniy namunalarning mikrotuzilmasi, morfologiyasi, kukunlar olish va tozalash texnologiyasi, shuningdek granulalangan yarimo'tkazgichlarning elektrofizik xossalari va zaryad ko'chish jarayonlari muhokama etilgan.

Ilmiy tadqiqot ishida tajribalar o'tkazishda p- tipli, diametri 3 sm, qalinligi 400 mkm, solishtirma qarshiligi $\rho \sim 3 \text{ Om} \cdot \text{sm}$ bo'lgan kremniy namunalari sirtiga $E \approx 30 \text{ keV}$ energiya ta'sirida, $D \approx 10^{13} \text{ sm}^2$ miqdorda Na va Cs atomlari kiritilgan, so'ngra 300÷1000 K va 10^{-6} Torr vakuum sharoitida termik ishlov berilgan polikristall kremniy plastinkalarini o'lchamlari 400 nm ÷ 60 mkm bo'lguncha maydalangan granulalardan foydalanilgan. Shuningdek ishqoriy metall atomlarini kremniyning elektrofizik xossalariga ta'sirini solishtirish maqsadida xuddi shu o'lchamdagi KES 0,01 markali, qalinligi 340 mkm, solishtirma qarshiligi $\rho \sim 10 \text{ Om} \cdot \text{sm}$ bo'lgan monokristall kremniy plastinkalaridan maydalab tayyorlangan kremniy granulalaridan foydalanildi (3-rasm).




3 - rasm. Granulalangan kremniy kukunlarining mikrofotografiyasi

Tadqiqotlardan ko'rinadiki, barcha turdagi granulalar tarkibi 98,54-98,95 % sof kremniydan, qolgan qismi esa SiO₂ dan tashkil topgan. Kremniy miqdori sirtga yaqinlashgan sari 98,54 % dan 94,54 % gacha kamayib, aksincha, kislorod miqdori ortib borgan holda joylashganligi aniqlandi (4-rasm).




4 – rasm. Granulalangan kremniy kukunining rentgen spektral xarakteristikasi

Dastlab kremniy xom ashyolarining barchasi planetar shar tegirmoni yordamida maydalanib, kukun holatiga keltirildi. Kukunlash jarayonida ishqalanish, mexanik ishlov berish, qizish hamda kristalografik nuqsonlarning hosil bo‘lishi granula yadrosidan sirt sohasigacha fazalar o‘zgarishiga olib keladi. Shu sababli granula yadrosidan sirti tomon temperaturalar farqi vujudga keladi ($T_3 \leq T_2 \leq T_1$, 5a - rasm). Temperaturalar farqiga mos holda granula tuzilishi 3 qismdan, nisbatan temperaturasi yuqori bo‘lgan notekis sirt, ya’ni reaksiyalanish qobiliyati yuqori bo‘lgan (1) soha, kukun yadrosi (3) hamda (1) va (3) sohalarni ajratib turuvchi (2) oraliq sohalardan iborat ekanligi aniqlandi (5a - rasm).




5 - rasm. a) Granulalarning soddalashtirilgan sxemasi, b) granulaning kristall tuzilishi. 1–notekis sirt soha, 2–oraliq soha 3–granula yadrosi, $T_3 \leq T_2 \leq T_1$ – mos holda qizdirilganda kontakt sohalardagi temperaturalar, O–kislrorod atomlari, Si–kremniy atomlari, P – kirishma atomlari, Vacancy – vakansiya.

Biz granulalangan kremniyning elektrofizik xususiyatlarini ichki diametri 2 mm bo‘lgan dielektrik korpus (keramik trubka)ga joylashtirilgan holatda o‘rgandik, 6 – rasmda tadqiqot metodi va unga mos holda granular joylashuvining soddalashtirilgan sxemasi) tasvirlangan.



6-rasm. Granular joylashuvining soddalashtirilgan sxemasi. 1- granularning o‘zaro ketma-ket tutashgan sohasi, 2 – granularning keramik trubka (4) bilan tutashgan sohasi, 3 – yarimo‘tkazgich kukunlari, 4 – keramik trubka, 5 – granularning o‘zaro parallel tutashgan sohasi, 6 – isitgich, 7 - omik kontaktlar, Q – berilayotgan issiqlik miqdori

Namunaga A sohadan Q issiqlik berilganda M_A va M_B kontaktlarda temperaturalar farqi paydo bo‘ladi (6 - rasm). Bunday holda, A sohaning qizishi hisobiga hosil bo‘lgan zaryad tashuvchilar nisbatan temperaturasi past bo‘lgan B soha tomonga ko‘chadi va temperatura ta‘sirida zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi ortadi. Natijada, temperaturasi yuqori bo‘lgan A sohadan B sohaga zaryad tashuvchilar ko‘chishi yuz beradi. Ko‘rib o‘tilgan holatlarda granular yadro (3) orqali emas, balki, granula sirtidagi igna tolali notekis soha (1) va uni granula yadrosidan ajratib turuvchi oraliq soha (2) lar (5a - rasm) orqali, ya‘ni, 6 – rasmda tasvirlangandek 1-2 hamda 5 sohalar orqali tutashadi, zaryad ko‘chish jarayonlari ham aynan shu tutashgan sohalar orqali amalga oshishi aniqlandi.



7-rasm. Zaryadlangan donadorliklararo chegara sohalarining zonalar diagrammasi.

7-rasmda zaryadlangan donadorliklararo chegara sohalarining zonalar diagrammasi tasvirlangan. Termoelektron emissiya modeliga ko‘ra, zaryadlar chapdan o‘ngga o‘tish jarayonida termoelektron emissiya (J_{th}) toki paydo bo‘ladi:

$$J_{th} = A^* \cdot T^2 \exp(-\beta(\zeta + \varphi))(1 - \exp(-\beta U)) \quad (8)$$

bu yerda, $\beta = e/kT$ - koeffitsient, A^* - Richardson effektivlik doimiysi, U - berilgan kuchlanish, $e\phi$ – chapdagi to‘siq balandligi, $e\zeta$ – donadorlikda kirishmalarning legirlanish konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘lgan Fermi sathi.

Zonalar diagrammasidan ko‘rinadiki, J_{th} termoelektron emissiya tokidan tashqari ikkinchi J_{ss} tok ham keltirilgan. Bu tok, zaryad tashuvchilarning chapdan o‘ng tomonga o‘tayotganda E_f fermi sathidan yuqorida joylashgan donadorliklararo chegara sohasidagi lokallashgan tuzoqlar (E_{in})da ushlanishi va qayta ozod bo‘lishi jarayonida paydo bo‘ladi. Bu tok tuzoqlarning to‘liq o‘tkazuvchanligi (Y_{ss}) ga va potensial to‘siq balandligi ($\delta\phi$) ga quyidagicha bog‘langan

$$J_{ss} = Y_{ss} \delta\phi \quad (9)$$


Bu holda umumiy tokni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$J_{tot} = J_{th} + J_{ss} \quad (10)$$

(10) ifodadan ko‘rinadiki, umumiy tok zaryad tashuvchilarning tuzoqlarda ushlanishi va qayta ozod bo‘lishiga bog‘liq. Temperatura ortishi jarayonida elektron-kovak juftliklari generatsiyasi kuchayishi hisobiga paydo bo‘luvchi umumiy tok ham ortib boradi. Demak, polikristall yarimo‘tkazgichlarda zaryad ko‘chish jarayoni asosan ikki tutashgan sohalarda namoyon bo‘luvchi J_{ss} tok va E_i sathli tuzoqlarning (Y_{ss}) to‘liq o‘tkazuvchanligiga bog‘liq.


“Ishqoriy metall atomlari kiritilgan granulalangan kremniyning asosiy elektrofizik va termoelektrik xususiyatlari” nomli to‘rtinchi bobida granulalangan kremniyning fizik xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, birinchi marta granulalangan Si da temperatura ortishiga bog‘liq holda elektron-kovak juftliklarining hosil bo‘lishi va zaryad ko‘chish jarayonlariga ishqoriy metall atomlarining ta’sirini o‘rganishda olingan tadqiqot natijalari keltirilgan.

8-rasmda 25 MPa tashqi bosimda, zarrachalari o‘lchami 400 nm dan 60 mkm gacha bo‘lgan ishqoriy metall atomlari kiritilgan p tipli polikristall kremniy plastinasidan tayyorlangan granulalangan kremniy namunasini solishtirma qarshiligining temperaturaga bog‘liqligi keltirilgan. Rasmdan ko‘rinadiki, ~350 K temperaturada ishqoriy metall atomlari kiritilgan namunalarning solishtirma qarshiligining qiymati ishqoriy metall atomlari kiritilmagan namunalardagiga nisbatan 2 marta, 350÷450 K oraliq‘ida 6 marta, 700÷800 K oraliq‘ida 7 martagacha kam bo‘lishi kuzatildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarda granulalangan kremniyning solishtirma qarshiligini tashqi bosimga ham kuchli bog‘liqligi aniqlangan bo‘lib, keltirilgan natijalarga asoslangan holda, agar bosim 50 MPa gacha oshirilsa 300 K temperaturada namunalardagi solishtirma qarshilikning qiymati 4 darajaga kamayishini, ya’ni Cs kiritilgan namunada $\rho \sim 1,78 \cdot 10^{-2}$ Om*sm/MPa, Na kiritilgan namunada $\rho \sim 2,25 \cdot 10^{-2}$ Om*sm/MPa koeffitsient bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rishimiz mumkin. Shunday qilib tadqiqot natijalariga ko‘ra, ishqoriy metall atomlari granulalangan kremniyning solishtirma qarshiligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.



8-rasm. Granulalangan Si namunalarda solishtirma qarshilikning temperaturaga bog‘liqligi. 1 – legirlanmagan Si (KES-0.01), 2 – Na bilan legirlangan granular, 3 – Cs bilan legirlangan granular.


Bizga ma’lumki, termoelektrik material sifatida foydalanishning asosiy shartlaridan biri bu harorat 700 K dan yuqori bo‘lganda materialning o‘tkazuvchanligini ortishi va buning natijasida solishtirma termoelektrikni oshishi hisoblanadi. Ushbu shart granulalangan kremniydan yuqori samaradorlikga ega bo‘lgan issiqlik energiya o‘zgartirgichlarini tayyorlash uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Tadqiqot natijalarimizdan ko‘rinadiki, ishqoriy metall atomlari kiritilgan granulalangan kremniy yuqori samaradorlikga ega bo‘lgan issiqlik energiya almashtirgichlarini tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.



9-rasm. Qorong‘ulik tokining temperaturaga bog‘liqligi. 1 – legirlanmagan Si (KES-0.01), 2 – Na atomlari kiritilgan granula, 3 – Cs atomlari kiritilgan granula

9-10 - rasmlarda 25 MPa tashqi bosim ta’sirida granulalangan kremniyda qorong‘ulik toki va kuchlanishining temperaturaga ($T \approx 300-650$ K) bog‘liqlik grafigi keltirilgan. Grafikdan ko‘rinadiki ishqoriy metall atomlari kiritilgan namunalarda olingan natijalar ishqoriy metall atomlari kiritilmagan namunalarnikidan tubdan farq qiladi. Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki 375 K temperaturada Cs kiritilgan namunalardagi tok kuchining qiymati ishqoriy metall atomlari kiritilmagan namunalarga nisbatan 30 martagacha, Na kiritilgan namunalarda esa 20 martagacha ortiq bo‘lishi kuzatildi. Salt ishlash kuchlanishi ham tok kuchiga mos holda o‘zgaradi. Bundan ko‘rinadiki, ishqoriy metall atomlari temperatura ortib borishi bilan desorblanib granula sirtidagi SiO_2 dan iborat notekis sohada, $\text{Na}_x\text{-O}_y$ va $\text{Cs}_x\text{-O}_y$ yoki $\text{Na}_x\text{-V}_y$ va $\text{Cs}_x\text{-V}_y$ kompleks


birikmalarni hosil qiladi. Bu holat, tarkibida ishqoriy metall atomlari bo'lmagan granularga nisbatan qorong'ulik toki va kuchlanishining ortishiga olib keladi.



10 – rasm. Granulalangan kremniy namunalarini qizdirish natijasida hosil bo'lgan salt yurish kuchlanishning temperaturaga bog'liqligi. 1 – legirlanmagan Si ($K_{ЭC} = 0.01$), 2 – Na atomlari kiritilgan granula, 3 – Cs atomlari kiritilgan granula


Ishqoriy metall atomlari 11 – rasmda tasvirlangandek, kukunning barcha sohalarida mavjud. Kimyoviy jihatdan faol bo'lgan, tez harakatchan ishqoriy metall atomlari kremniy granularida donor sathlarni hosil qilib, kislorod atomlari hamda vakansiyalar bilan oson ta'sirlashadi. Natijada, haroratning ortib borishi bilan desorblanib Na_x-O_y va Cs_x-O_y yoki Na_x-V_y , va Cs_x-V_y kompleks birikmalarni hosil qiladi. Bu jarayon kremniy granulari sirtida SiO_2 yoki Si_xO_y kabi oksid birikmalarni paydo bo'lishini oldini oladi, shuningdek, temperatura ta'sirida namoyon bo'luvchi yangi turdagi rekombinatsiya markazlarini bartaraf etish imkonini beradi.

Termoelektrik materiallarning asosiy xususiyatlaridan biri Zeebek koeffitsiyenti ya'ni solishtirma termoEYUK (α) xisoblanadi. Hozirda keng qo'llanilib kelayotgan termoelektrik materiallar uchun termoEYUK (α) ning qiymati 200-300 mkV/K hisoblanadi. Monokristall kremniy uchun esa bu qiymat 300 K temperaturada $\sim 44-50$ mkV/K bo'lganligi sababli ulardan termoelektrik material sifatida faqat maqsadli holatlardagina kamdan-kam foydalanilar edi.



11-rasm. Granulaning kristall panjara tuzilishi. 1 – kremniy, 2 – vodorod, 3 – kislorod, 4 – ishqoriy metall atomlari, 5 – kremniy yoki kirishma atomlarining uzilgan bog'i.

12-rasmda granulalangan kremniyning 300-500 K temperatura oralig'idagi Zeebek koeffitsienti (α)ning temperaturaga bog'liqligi keltirilgan. Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki 300 ÷ 500 K oralig'ida Zeebek koeffitsiyentining qiymati Cs kiritilgan namunalarda 470 ÷ 510 mkV/K, Na kiritilgan namunalarda esa 370 ÷ 430 mkV/K bo'lib bu monokristal kremniyga nisbatan 10÷8 barobar ko'p ekanligi, shuningdek boshqa termoelektrik materiallardan farqli ravishda Zeebek koeffitsientini haroratga deyarli bog'liq emasligi aniqlandi.




12 – rasm. Zeebek koeffitsienti (α) ni temperaturaga bog'liqligi. 1 – Cs atomlari kiritilgan granular, 2 – Na atomlari kiritilgan granular.

Termoelektrik materiallarning asosiy parametrlaridan yana biri ularning issiqlik o'tkazuvchanlik (χ) xisoblanib, termoelektrik materiallarning asilligi (Z) ni oshirish uchun materialning issiqlik o'tkazuvchanligini kamaytirish talab qilinadi:

$$Z = \frac{\alpha^2 \sigma}{\chi} \quad (11)$$

Z – materiallarning asilligi, σ - elektr o'tkazuvchanlik, α – solishtirma termoEYUK, χ - issiqlik o'tkazuvchanligi.



13-rasm. Solishtirish metodidan foydalangan holda granulalangan kremniyning issiqlik o'tkazuvchanligini o'lchash sxemasi.

